



## TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI SOLIQQA TORTISHNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

**Karimov Mirolimjon**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ORCID: 0009-0007-3683-7549

[kmk@ach.gov.uz](mailto:kmk@ach.gov.uz)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada O'zbekistonda tadbirkorlik subyektlarini soliqqa tortish tizimini takomillashtirishning nazariy va amaliy masalalari yoritilgan. Soliq siyosatini liberallashtirish, soliqqa tortish mexanizmlarini soddalashtirish hamda soliq ma'murchiligini raqamlashtirish orqali tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash yo'llari tahlil qilingan. Shuningdek, kichik va o'rta biznes subyektlarining soliqqa tortilishida mavjud muammolar, ularni bartaraf etishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlari hamda xorijiy tajriba asosida takomillashtirish yo'nalishlari ko'rsatib o'tilgan. Tadqiqot natijalari tadbirkorlik subyektlari uchun qulay soliq muhiti yaratish, soliqqa tortishning shaffofligini ta'minlash va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishga qaratilgan takliflarni o'z ichiga oladi.

**Kalit so'zlar:** soliqqa tortish, tadbirkorlik subyekti, soliq siyosati, soliq ma'murchiligi, raqamlashtirish, iqtisodiy o'sish, soliq tushumlari, tahlika-tahlil, xavflar, soliq imtiyozlari, soliq stavkasi.

## ПРОБЛЕМЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ НАЛОГООБЛОЖЕНИЯ СУБЪЕКТОВ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА

**Каримов Миролимжон**

Ташкентский государственный экономический университет

**Аннотация.** В статье рассматриваются теоретические и практические вопросы совершенствования системы налогообложения субъектов предпринимательства в Узбекистане. Проанализированы пути поддержки предпринимательской деятельности посредством либерализации налоговой политики, упрощения механизмов налогообложения и цифровизации налогового администрирования. Также обозначены существующие проблемы в налогообложении субъектов малого и среднего бизнеса, организационно-правовые механизмы их устранения и направления совершенствования на основе зарубежного опыта. Результаты исследования включают предложения, направленные на создание благоприятной налоговой среды для субъектов предпринимательства, обеспечение прозрачности налогообложения и стимулирование экономического роста.

**Ключевые слова:** налогообложение, субъект предпринимательства, налоговая политика, налоговое администрирование, цифровизация, экономический рост, налоговые поступления, анализ рисков, налоговые льготы, налоговая ставка.

## ISSUES OF IMPROVING TAXATION OF BUSINESS ENTITIES

**Karimov Mirolimjon**

Tashkent State University of Economics

**Abstract.** This article discusses the theoretical and practical issues of improving the taxation system of business entities in Uzbekistan. The ways of supporting entrepreneurial activity through liberalization of tax policy, simplification of taxation mechanisms and digitalization of tax administration are analyzed. Also, the existing problems in the taxation of small and medium-sized businesses, organizational and legal mechanisms for their elimination, and directions for improvement based on foreign experience are indicated. The results of the study include proposals aimed at creating a favorable tax environment for business entities, ensuring transparency of taxation, and stimulating economic growth.

**Keywords:** taxation, business entity, tax policy, tax administration, digitalization, economic growth, tax revenues, risk analysis, risks, tax incentives, tax rate.

**Kirish.**

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkorlik sub'ektlari mamlakat iqtisodiy taraqqiyotining asosiy harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi. Ularning samarali faoliyat yuritishi, avvalo, adolatli va qulay soliqqa tortish tizimining mavjudligiga bevosita bog'liqdir. Shu sababli, tadbirkorlik sub'ektlarini soliqqa tortish mexanizmlarini takomillashtirish, soliq yukini maqbullashtirish va soliq ma'murchiligini soddalashtirish O'zbekistonning iqtisodiy siyosatida ustuvor yo'nalishlardan biri bo'lib kelmoqda.

So'nggi yillarda mamlakatda soliq tizimini isloh qilish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Xususan, soliqqa tortishning soddalashtirilgan shakllari joriy etildi, elektron soliq tizimlari tatbiq etildi hamda soliq to'lovchilar uchun qulay sharoitlar yaratildi. Biroq, tadbirkorlik sub'ektlarini soliqqa tortishda hali ham bir qator muammolar — soliqqa tortish bazasini kengaytirish, soliq intizomini mustahkamlash, raqamlashtirish jarayonlarini jadallashtirish va soliq ma'murlari hamda tadbirkorlar o'rtasidagi o'zaro ishonchni oshirish kabi masalalar o'z yechimini kutmoqda.

**Adabiyotlar sharhi.**

Tadbirkorlik sub'ektlarini soliqqa tortish tizimini takomillashtirish bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar, asosan, soliq siyosatini liberallashtirish, soliqqa tortish mexanizmlarini soddalashtirish va raqamlashtirish jarayonlarini rivojlantirishga qaratilgan.

O'zbekistonlik olimlar A. Azizov (2021), M. G'ulomov (2020), B. Abdukarimov (2022) tadqiqotlarida tadbirkorlik sub'ektlarini soliqqa tortish tizimini takomillashtirish mamlakatda biznes muhitini yaxshilash va iqtisodiy o'sishni jadallashtirishda muhim o'rin tutishini ta'kidlaydilar. Ularning fikricha, soliq siyosatini soddalashtirish va raqamlashtirish orqali soliq ma'murchiligini samarali tashkil etish mumkin.

Xorijiy iqtisodchilar J. Stiglitz (2015), R. Musgrave (1989), A. Smith (1776) o'z asarlarida soliqqa tortishning adolat, barqarorlik va iqtisodiy o'sishga ta'sir mexanizmlarini nazariy asoslab berganlar. Ularning ta'kidlashicha, soliqqa tortish tizimining soddaligi va shaffofligi tadbirkorlikni rivojlantirishda muhim omil sanaladi.

OECD (2020) va World Bank (2021) hisobotlarida esa soliqqa tortish tizimlarining raqamlashtirilishi orqali soliq bazasini kengaytirish, korrupsiyani kamaytirish va soliq to'lovchilarning ishonchini mustahkamlash bo'yicha ilg'or amaliyotlar keltirilgan.

Olennikovning (2017) fikricha, soliqdan qochish va soliqlarni optimallashtirish bu soliq to'lovchining rejalashtirgan hatti-harakatlari hisoblanadi.

Makoveskiy (2017) kabi olimlar soliqdan qochishning eng ko'p qonuniy tarqalgan usullaridan biri bo'lgan soliqlarni optimallashtirish tushunchasiga ham ta'rif berib o'tadi, ya'ni

ularning ta'biricha, "Soliqlarni optimallashtirishda soliq to'lovchining maqsadli qonuniy harakatlari, shu jumladan qonun hujjatlarida nazarda tutilgan barcha imtiyozlardan to'liq foydalanish, soliq imtiyozlari va boshqa qonuniy imtiyozlar orqali soliq majburiyatlari miqdorini kamaytirishni tushunish odatiy holdir. Boshqacha aytganda, bu soliq va jinoyat qonunchiligi normalarini buzmaganda, qonuniy asoslarda soliq to'lovlari minimal darajaga tushiriladigan xo'jalik yurituvchi sub'ekt faoliyatini tashkil etishdir" deydi.

Guver "Germaniyada soliqlarni to'lashdan bo'yin tovlash istagi tug'ilish istagidan kuchliroqdir" deganda soliqdan bo'yin tovlashning asosiy ijtimoiy-siyosiy negizini ko'rsatib o'tgan edi (Kottke, 1998).

Rossiyalik olim Aleksandrova (2017) bu boradagi tadqiqotlari natijasida "Soliq to'lovchilar tomonidan soliq to'lashdan bo'yin tovlashning ommaviyligi, soliq jinoyatlarining kechikish darajasining yuqoriligi alohida o'tkirlik bilan ularni ochish muammosini qo'yimoqda, bu faoliyatning maqbul va samarali yo'llari va vositalarini izlash va ishlab chiqish zarurati tug'iladi. Huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatining tahlili shuni ko'rsatadiki, soliqqa oid jinoyatlarni aniqlash boshqa turdagi jinoyatlarga qaraganda ancha qiyin. Bunday sharoitda soliq jinoyatlarini aniqlash bo'yicha chora-tadbirlarni, shu jumladan sud-tibbiyotni ishlab chiqish ayniqsa muhimdir" deb ta'kidlaydiki, muallif soliqdan bo'yin tovlash jarayonlariga huquqiy baho berish boshqa jinoyatlarga qaraganda anchayin murakkabligiga ishora qiladi.

Abdullina (2016) fikricha, soliqdan qochishda huquqni muhofaza qiluvchi organlarda soliq jinoyatlarini aniqlashda buxgalteriya hujjatlarini tahlil qilishning qiyinchiliklarining mavjudligi, yangi tashkil etilib, tez faoliyatini tugatadigan korxonalarni monitoring qilishda yetarli malakaning kamligi, fuqarolik, iqtisodiy huquqiy hujjatlarni o'zaro integratsiyalash asosida tahlil qilishning qiyinligi, qonun hujjatlarining yetarli takomillashmaganligi oqibatida soliqdan qochish holatlarining huquqiy negiziga asoslangan holda bu jarayonni kamaytirishga qaratilgan harakatlarning samarasiz bo'lishiga ta'sir qilmoqda.

### **Tadqiqot metodologiyasi.**

Mazkur tadqiqotning metodologiyasi tadbirkorlik subyektlarini soliqqa tortish tizimini takomillashtirishning nazariy, amaliy va institutsional asoslarini o'rganishga qaratilgan. Tadqiqotda muammoni har tomonlama tahlil qilish maqsadida tizimli yondashuv, iqtisodiy-statistik tahlil, komparativ (taqqoslash) va deduktiv-induktiv usullar qo'llanildi.

### **Tahlil va natijalar muhokamasi.**

"Tadbirkorlik sub'ektlarini soliqqa tortishni takomillashtirish" g'oyasi alohida bir davlatda yoki aniq bir sanada paydo bo'lgan emas bu jarayon bozor iqtisodiyoti rivojlanishi bilan bosqichma-bosqich shakllangan.

G'arb mamlakatlarida shakllanish (XVIII–XX asrlar). Tadbirkorlik sub'ektlarini soliqqa tortish tizimini takomillashtirish g'oyasi dastlab Buyuk Britaniya va AQShda XVIII asrda bozor iqtisodiyoti va sanoat inqilobi davrida shakllangan. 1776-yilda Adam Smith o'zining mashhur asari "The Wealth of Nations" da soliqqa tortishning to'rtta asosiy tamoyilini (adolat, aniqlik, qulaylik, samaradorlik) belgilab berdi. Shu tamoyillar asosida tadbirkorlik faoliyatiga mos soliqqa tortish tizimlari yaratilgan. XX asr boshlarida AQSh va G'arbiy Yevropa davlatlari kichik biznesni qo'llab-quvvatlash maqsadida soddalashtirilgan soliqqa tortish tizimlarini (simplified taxation) joriy etganlar.

Raqamlashtirish bosqichi – Estoniya, Janubiy Koreya, Singapur (1990–2010-yillar). XX asr oxiri va XXI asr boshlarida tadbirkorlik sub’ektlarini soliqqa tortishni takomillashtirishning zamonaviy bosqichi boshlandi — ya’ni raqamlashtirish (digitization) davri. Estoniya 1994-yildan boshlab “E-Government” loyahasini ishga tushirib, 2000-yillarda elektron soliq tizimi (E-Tax Board) ni yaratdi. Janubiy Koreya 2005-yildan boshlab e-Tax Invoice tizimini joriy etib, soliq ma’lumotlarini onlayn kuzatish imkonini berdi. Singapur 2008-yilda biznes uchun integratsiyalashgan soliq platformasini (IRAS e-Services) yo’lga qo’ydi.

O‘zbekistonda shakllanish (2017-yildan hozirgacha). O‘zbekistonda tadbirkorlik sub’ektlarini soliqqa tortishni takomillashtirishga alohida e’tibor 2017-yildan boshlab berila boshlandi. 2018-yilda “Soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi” qabul qilindi. 2019-yilda yangi Soliq kodeksi kuchga kirdi. 2020–2024-yillar davomida elektron hisob-fakturalar, soliq onlayn tizimlari va raqamli soliq ma’urchiligi bosqichma-bosqich joriy etildi.

Tadbirkorlik sub’ektlarini soliqqa tortishni takomillashtirishning asosiy vazifalari. Soliq siyosatini soddalashtirish va barqarorlashtirish. Tadbirkorlik sub’ektlari uchun soliqqa tortish tartiblarini aniq, barqaror va prognoz qilinadigan shaklga keltirish. Soliq stavkalarini turg’un saqlash orqali tadbirkorlik faoliyati barqarorligini ta’minlash. Soliq ma’urchiligini raqamlashtirish. Elektron hisob-fakturalar, onlayn kassa apparatlari, soliq hisobotlarining avtomatlashtirilgan tizimini keng joriy etish. Sun’iy intellekt va axborot texnologiyalari orqali soliq to’lovchilar faoliyatini tahlil qilish. Soliq yukini optimallashtirish. Kichik va o’rta biznes uchun imtiyozli soliq rejimlarini kengaytirish. Ishlab chiqarish va eksportga yo’naltirilgan korxonalariga soliq yengilliklari yaratish. Soliq bazasini kengaytirish. Soha va hududlar bo’yicha soliq to’lovchilar bazasini tahlil qilib, yashirin iqtisodiy faoliyatni qonuniy maydonga chiqarish. Raqamli monitoring tizimlari orqali soliqlarning to’liq yig’ilishini ta’minlash. Tadbirkorlik muhitini yaxshilash. Soliq to’lovchilar uchun qulay, shaffof va tezkor xizmat ko’rsatish tizimini yaratish. Soliq organlari bilan tadbirkorlar o’rtasidagi o’zaro ishonch va hamkorlikni mustahkamlash. Xalqaro tajribani o’rganish va joriy etish. Rivojlangan davlatlarning soliq boshqaruvi tajribasidan foydalanish. Raqamli soliq tizimlari (masalan, Estoniya, Koreya, Singapur tajribalari) asosida milliy model yaratish. Soliq huquqiy bazasini takomillashtirish. Soliq kodeksini tadbirkorlik sub’ektlari ehtiyojlariga mos holda takomillashtirish. Soliq to’lovchilarning huquqiy madaniyatini oshirish bo’yicha targ’ibot ishlarini kuchaytirish.

Tadbirkorlik sub’ektlarini soliqqa tortishni takomillashtirishning asosiy vazifalari quydagilar:

Soliq siyosatini isloh qilish va soddalashtirish. Tadbirkorlik sub’ektlari uchun soliqqa tortish tizimini aniq, barqaror va prognoz qilinadigan holatga keltirish. Soliq qonunchiligini tadbirkorlik faoliyatini rag’batlantiruvchi yo’nalishda takomillashtirish. Soliq yukini maqbullashtirish. Kichik va o’rta biznes uchun qulay soliq stavkalarini joriy etish. Tadbirkorlik faoliyatini kengaytirishga to’sqinlik qiluvchi ortiqcha soliq majburiyatlarini kamaytirish. Soliq ma’urchiligini takomillashtirish. Soliq hisobotlarini topshirish, tekshiruv va nazorat jarayonlarini soddalashtirish. Soliq organlari faoliyatida shaffoflikni ta’minlash va korrupsiyani kamaytirish. Raqamlashtirish va axborot texnologiyalarini joriy etish. Soliq to’lovchilar uchun onlayn xizmatlarni keng joriy etish. Elektron hisob-faktura, soliq monitoringi va sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish. Soliq bazasini kengaytirish. Yashirin iqtisodiyot hajmini qisqartirish, rasmiylashtirilmagan tadbirkorlarni soliq tizimiga jalb etish. Soliq to’lovchilar ma’lumotlar bazasini yagona elektron tizimda shakllantirish. Tadbirkorlik faoliyatini

rag'batlantirish. Innovatsion va eksportga yo'naltirilgan korxonalar uchun soliq imtiyozlarini qo'llash.

Tadbirkorlik sub'ektlarini qo'llab-quvvatlovchi soliq mexanizmlarini yaratish. Xalqaro tajribani o'rganish va milliy amaliyotga tatbiq etish. Soliq to'lovchilar bilan muloqotni kuchaytirish. Soliq to'lovchilarning huquqiy madaniyatini oshirish. Soliq organlari bilan tadbirkorlar o'rtasida o'zaro ishonch va hamkorlikni mustahkamlash.

Soliq qonunchiligining murakkabligi va tez-tez o'zgarishi. Soliq kodeksiga kiritiladigan ko'plab o'zgarishlar tadbirkorlik sub'ektlarida barqarorlikni buzadi. Ayrim me'yorlar bir-biriga zid yoki tushunarsiz bo'lib, ularni amalda qo'llashda noaniqliklar keltirib chiqaradi.

Soliq yukining nisbatan yuqoriligi. Ayrim kichik biznes tarmoqlarida soliqlar miqdori ishlab chiqarish xarajatlariga nisbatan yuqori bo'lib, foyda darajasini kamaytiradi. Bu holat tadbirkorlarni yashirin iqtisodiyotga o'tishga undaydi. Soliq ma'murchiligining byurokratikligi. Soliq hisobotlarini topshirish va tekshiruv jarayonlari ayrim hollarda ortiqcha vaqt va xarajat talab qiladi. Soliq organlari bilan muloqot tizimi to'liq avtomatlashtirilmagan. Raqamlashtirish jarayonlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi. Elektron soliq tizimlari hali barcha hududlarda to'liq joriy etilmagan. Internet infratuzilmasining sustligi ayrim tadbirkorlar uchun onlayn tizimlardan foydalanishni qiyinlashtiradi. Soliq xodimlari malakasining yetarli emasligi. Soliq sohasida yangi texnologiyalar va xalqaro amaliyotlar bo'yicha bilimlar doimo yangilanmaydi. Bu esa zamonaviy soliq boshqaruvining samaradorligini pasaytiradi. Yashirin iqtisodiyotning yuqori ulushi. Ayrim tadbirkorlik sub'ektlari rasmiy hisobot yuritmasdan faoliyat yuritadi. Natijada, soliq bazasi to'liq shakllanmaydi va byudjet daromadlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Soliq imtiyozlarining samarasiz qo'llanilishi. Ba'zi imtiyozlar real ishlab chiqaruvchi tadbirkorlik sub'ektlariga emas, balki ma'muriy imkoniyatlarga ega sub'ektlarga beriladi. Bu raqobat muhitining buzilishiga olib keladi. Axborot tizimlari o'rtasida integratsiya yetishmasligi. Soliq, bojxona, bank va boshqa davlat organlari o'rtasida ma'lumot almashinuvi to'liq yo'lga qo'yilmagan. Bu soliq nazoratining samaradorligini pasaytiradi. Soliq to'lovchilar madaniyatining pastligi. Ayrim tadbirkorlar soliqqa tortish jarayonining ahamiyatini yetarli tushunmaydi. Soliqlarning davlat budjeti va ijtimoiy rivojlanishdagi o'rni to'liq anglanmagan.

AQShda tadbirkorlik sub'ektlarini soliqqa tortishni takomillashtirish masalalari.

1. Soliq tizimining asosiy tamoyillari AQShda soliqqa tortish tizimi adolat, soddalik va shaffoflik tamoyillariga asoslangan. Tadbirkorlik sub'ektlari uchun soliq siyosati iqtisodiy faollikni rag'batlantirish, innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash va ish o'rinlarini ko'paytirishga qaratilgan. Soliq siyosatini boshqaruvchi asosiy organ — Internal Revenue Service (IRS) bo'lib, u barcha federal soliqlarni yig'ish, nazorat qilish va raqamli boshqaruvni ta'minlaydi.

2. Soliq siyosatini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari.

a) Raqamlashtirish va avtomatlashtirish. AQShda soliq ma'murchiligi to'liq raqamli shaklga o'tgan. IRS tomonidan ishlab chiqilgan "E-file" tizimi tadbirkorlik sub'ektlariga soliq hisobotlarini onlayn topshirish, to'lovlarni elektron tarzda amalga oshirish imkonini beradi. Sun'iy intellekt asosida ishlovchi Data Analytics System soliqqa oid xatoliklar va firibgarliklarni avtomatik aniqlaydi.

b) Soliq yukini kamaytirish va rag'batlantirish. Kichik biznes sub'ektlari uchun Small Business Tax Credit dasturi amal qiladi. Innovatsion loyihalar, startaplar va yashil texnologiyalar sohasida faoliyat yurituvchi korxonalar uchun Research & Development (R&D)

Tax Credit imtiyozlari taqdim etiladi. Tadbirkorlar uchun progressiv soliq stavkalari joriy etilgan bo'lib, daromad oshgani sari soliq stavkasi ham oshadi, lekin kichik bizneslar uchun pastroq stavkalar saqlanadi.

c) Yashirin iqtisodiyotga qarshi raqamli nazorat. IRS "Information Matching System" orqali korxonalarining bank, bojxona va ijtimoiy sug'urta ma'lumotlarini avtomatik solishtiradi. Bu tizim soliqdan bo'yin tovlash, soxta hisobot va noqonuniy daromadlarni aniqlashga xizmat qiladi.

d) Soliq to'lovchilar bilan o'zaro ishonchni kuchaytirish. Har bir tadbirkorlik sub'ekti uchun onlayn soliq kabineti yaratilgan bo'lib, u yerda soliq tarixini, qarzdorlikni va hisobot holatini real vaqt rejimida kuzatish mumkin. IRS muntazam ta'lim dasturlari va seminarlar o'tkazib, soliq to'lovchilar madaniyatini oshiradi.

AQShda raqamlashtirilgan soliq tizimi tufayli soliqlarni yig'ish samaradorligi 98% darajaga yetgan. Soliq to'lovchilarning elektron tizimlardan foydalanish darajasi 90% dan ortiq. Kichik biznes uchun soliqqa tortish jarayonlari soddalashgani sababli, ularning soni so'nggi yillarda barqaror o'sib bormoqda.

AQSh tajribasi shuni ko'rsatadiki. Tadbirkorlik sub'ektlarini soliqqa tortishni takomillashtirishda raqamlashtirish, soliq imtiyozlarini maqsadli qo'llash va soliq to'lovchilar bilan ishonchli muloqotni yo'lga qo'yish eng samarali yo'ldir.

Xitoyda tadbirkorlik sub'ektlarini soliqqa tortishni takomillashtirish masalalari.

1. Xitoy soliq tizimining umumiy xususiyatlari. Xitoy Xalq Respublikasida soliq siyosati "barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash" tamoyiliga asoslanadi. Soliq tizimini boshqaruvchi asosiy organ — Davlat soliq boshqarmasi (State Taxation Administration – STA) bo'lib, u markaziy darajada barcha soliqlarni boshqaradi. Soliq siyosatini takomillashtirish Xitoyda 1994-yildan boshlab bosqichma-bosqich amalga oshirilib kelmoqda.

2. Tadbirkorlik sub'ektlarini soliqqa tortishni takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari

a) Raqamlashtirish va avtomatlashtirilgan boshqaruv. Xitoyda soliq tizimining markazida "Golden Tax System" (Oltin soliq tizimi) turadi — u soliq to'lovchilarning barcha ma'lumotlarini yagona elektron platformada birlashtiradi. Har bir korxonaga uchun onlayn soliq identifikatsiya kodi (Taxpayer ID) joriy qilingan. Soliq to'lovchilar elektron hisob-fakturalar (e-invoice) orqali o'z faoliyatini onlayn tarzda nazorat qila oladi.

b) Soliq yukini kamaytirish va biznesni rag'batlantirish. Kichik va o'rta tadbirkorlik sub'ektlari uchun "Preferential Tax Policy for Small Enterprises" dasturi amal qiladi. 2019-yildan boshlab kichik korxonalar uchun foyda solig'i 25% dan 20% ga tushirilgan, mikrofirmalar uchun esa 10% gacha kamaytirilgan. Innovatsion, texnologik va eksport yo'naltirilgan korxonalar uchun qo'shimcha soliq imtiyozlari joriy etilgan.

c) Yashirin iqtisodiyotga qarshi kurash. Xitoyda "Golden Tax System III" versiyasi orqali blokcheyn va sun'iy intellekt texnologiyalari yordamida soliqlardan bo'yin tovlash holatlari avtomatik aniqlanadi. Har bir savdo operatsiyasi elektron tizimda qayd etilishi shaffoflikni ta'minlaydi.

d) Hududiy farqlarni kamaytirish. Soliq siyosati Xitoyning turli viloyatlarida iqtisodiy sharoitdan kelib chiqib farqlanadi, ammo markaziy hukumat tadbirkorlik uchun yagona soliq standartlarini joriy etgan. Kam rivojlangan hududlarda faoliyat yurituvchi korxonalar uchun hududiy soliq imtiyozlari mavjud.

2020–2024-yillar oralig'ida Xitoyda kichik va o'rta bizneslar uchun soliq yukining o'rtacha 30% ga kamaygani qayd etilgan. Soliq yig'implarining raqamli tizim orqali amalga oshirilish darajasi 95% ga yetgan. Soliq to'lovchilarning soni barqaror oshgan, yashirin iqtisodiyot esa sezilarli qisqargan.

Kichik tadbirkorlikni soliq yengilliklari orqali rag'batlantirish ishlab chiqarishni kengaytiradi. Yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashda sun'iy intellekt va blokcheyn texnologiyalarini joriy etish soliq adolatligini ta'minlaydi. Soliq to'lovchilar uchun elektron xizmatlar va onlayn hisob-kitob tizimlarini keng joriy etish ularning ishonchini mustahkamlaydi.

Xitoy tajribasi shuni ko'rsatadiki, tadbirkorlik sub'ektlarini soliqqa tortishni takomillashtirish raqamli boshqaruv, soliq yukini maqbullashtirish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali eng yuqori samaraga erishadi (Vachugov, 2019).

Janubiy Koreyada tadbirkorlik sub'ektlarini soliqqa tortishni takomillashtirish masalalari.

1. Koreya soliq tizimining umumiy tavsifi. Janubiy Koreyada soliq siyosati "raqobatbardosh iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlash va innovatsion tadbirkorlikni rag'batlantirish" tamoyiliga asoslangan. Asosiy boshqaruv organi — Koreya milliy soliq xizmati (National Tax Service – NTS) bo'lib, barcha soliq jarayonlari raqamlashtirilgan avtomatlashtirilgan tizimlar orqali amalga oshiriladi. Koreyada soliqqa tortish tizimini takomillashtirish 2000-yillardan boshlab raqamli iqtisodiyotga o'tish bilan bir vaqtda jadallashgan.

## 2. Soliq tizimini takomillashtirish yo'nalishlari

a) To'liq raqamlashtirilgan soliq boshqaruvi. Koreyada Hometax va Smart Tax onlayn platformalari orqali korxonalar barcha soliq operatsiyalarini — hisob-faktura, hisobot topshirish, soliq to'lov va qaytarish jarayonlarini elektron tarzda bajaradi. AI (sun'iy intellekt) va Big Data texnologiyalari asosida soliq to'lovchilarning faoliyati real vaqt rejimida tahlil qilinadi. Soliq tekshiruvlari avtomatik algoritmlar asosida amalga oshiriladi, bu esa inson omilini kamaytiradi va shaffoflikni oshiradi.

b) Kichik va o'rta biznesni rag'batlantirish. Kichik korxonalar uchun soliq yukini kamaytiruvchi "SME Tax Relief Program" joriy etilgan. Innovatsion startaplar va IT sohasidagi korxonalar uchun 5-yilgacha bo'lgan soliq ta'tili (tax holiday) qo'llaniladi. Eksport faoliyati bilan shug'ullanuvchi kompaniyalarga soliq imtiyozlari beriladi.

c) Yashirin iqtisodiyot va soliqdan bo'yin tovlashga qarshi kurash. Hometax Monitoring System orqali barcha elektron to'lovlar, bank operatsiyalari va savdo ma'lumotlari yagona bazaga kiritiladi. Har bir savdo-sotiq operatsiyasi real vaqt rejimida soliq tizimida qayd etiladi, bu yashirin daromadni deyarli imkonsiz qiladi.

d) Soliq to'lovchilar bilan o'zaro hamkorlik. NTS tomonidan "Taxpayer Support Center" markazlari tashkil etilgan, ular tadbirkorlik sub'ektlariga bepul maslahat, trening va huquqiy yordam beradi. Soliq to'lovchilarning huquqlarini himoya qiluvchi maxsus "Tax Ombudsman Office" faoliyat yuritadi.

Koreyada soliqlarni yig'ish samaradorligi 99% darajaga yetgan. Soliq to'lovchilarning 95% dan ortig'i elektron tizimlar orqali hisobot topshiradi. Kichik biznes uchun soliq yukining kamaytirilishi ularning sonini so'nggi o'n yillikda 25% ga oshirgan. Yashirin iqtisodiyot hajmi esa YIMning 10% dan kam darajada ushlab turilgan.

Rossiyada tadbirkorlik sub'ektlarini soliqqa tortishni takomillashtirish masalalari.

1. Rossiya soliq tizimining umumiy tavsifi. Rossiyada soliq siyosati iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan.

Asosiy boshqaruv organi — Rossiya Federatsiyasi Federal soliq xizmati (FNS) bo'lib, u so'nggi yillarda soliq ma'murchiligini to'liq raqamlashtirish va sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etishga e'tibor qaratmoqda. Rossiyada tadbirkorlik sub'ektlarini soliqqa tortish tizimini isloh qilish jarayoni 2001-yilda yangi Soliq kodeksi qabul qilinishi bilan boshlangan, 2010-yildan esa u raqamli boshqaruv bosqichiga o'tdi.

2. Soliq tizimini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari.

a) Raqamli soliq nazorati tizimi. Rossiyada "Soliq monitoringi" (Tax Monitoring) tizimi joriy etilgan. Bu tizim yirik korxonalarining barcha moliyaviy operatsiyalarini real vaqt rejimida nazorat qiladi. "Nalog-3" axborot tizimi orqali korxonalarining buxgalteriya hisobi, bank operatsiyalari va kontragentlar bilan bitimlari avtomatik ravishda kuzatiladi. Bu yondashuv soliq tekshiruvlarini kamaytirib, ishonchga asoslangan soliq boshqaruv modelini shakllantiradi.

b) Kichik biznes uchun soddalashtirilgan soliqqa tortish. Rossiyada 2003-yildan beri "Soddalashtirilgan soliq tizimi (USN)" amal qiladi. Unga ko'ra, kichik tadbirkorlik sub'ektlari faqat daromaddan 6% yoki sof foydadan 15% soliq to'laydi. Bu tizim tadbirkorlik muhitini soddalashtirib, kichik biznesning ko'payishiga yordam berdi.

c) Elektron hisob-fakturalar va onlayn kassa tizimi. 2017-yildan boshlab onlayn nazorat-kassa mashinalari (online-kassy) tizimi joriy etildi. Bu tizim orqali har bir savdo operatsiyasi avtomatik tarzda Federal soliq xizmatiga yuboriladi. Natijada, yashirin savdo operatsiyalarini aniqlash osonlashdi va soliqqa tortish bazasi kengaydi.

d) Soliqdan bo'yin tovlashga qarshi sun'iy intellekt. FNS tomonidan ishlab chiqilgan "ASK NDS-3" tizimi yordamida qo'shilgan qiymat solig'idan (QQS) bo'yin tovlash holatlari avtomatik aniqlanadi. Tizim har bir bitimni, kontragentlar zanjirini va pul oqimini tahlil qilib, soliq xavfini baholaydi.

e) Soliq to'lovchilar bilan hamkorlik. Rossiyada "Tadbirkorlar bilan ochiq muloqot" platformasi joriy etilgan bo'lib, unda korxonalar soliq masalalari bo'yicha onlayn maslahat oladi. FNS veb-sayti orqali barcha xizmatlar (ro'yxatdan o'tish, hisobot topshirish, to'lovlar) 100% elektron shaklda amalga oshiriladi.

### **Xulosa va takliflar.**

Raqamlashtirishni kengaytirish — soliq jarayonlarini to'liq elektron shaklga o'tkazish, sun'iy intellekt yordamida nazoratni kuchaytirish.

Soddalashtirilgan tizimni rivojlantirish — kichik biznes uchun soliq stavkalarini yengillashtirish va hisobot yukini kamaytirish.

Soliq imtiyozlarini optimallashtirish — faqat innovatsion va ijtimoiy loyihalar uchun imtiyoz berish.

Soliq madaniyatini oshirish — tadbirkorlar uchun o'quv dasturlari va onlayn maslahat tizimlarini yo'lga qo'yish.

Yashirin iqtisodiyotga qarshi kurash — elektron hisob-faktura va onlayn kassa tizimini majburiy joriy etish.

Shaffof nazorat tizimi — riskga asoslangan soliq tekshiruvlarini joriy etish.



**Adabiyotlar/Literaturaga/Reference:**

- Azizov, A. (2021). *O'zbekistonda soliq siyosatini takomillashtirish yo'llari*. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti.
- G'ulomov, M. (2020). *Soliq ma'murchiligi samaradorligini oshirishning zamonaviy yondashuvlari*. TDIU ilmiy jurnali, №3, 45–52-betlar.
- Abdukarimov, B. (2022). *Tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatini soliqqa tortishning iqtisodiy mexanizmlari*. Samarqand davlat universiteti axborotnomasi, №2, 61–68-betlar.
- Stiglitz, J. (2015). *The Price of Inequality: How Today's Divided Society Endangers Our Future*. W.W. Norton & Company.
- Musgrave, R. (1989). *Public Finance in Theory and Practice*. McGraw-Hill Education.
- Smith, A. (1776). *An Inquiry into the Nature and Causes of the Wealth of Nations*. London.
- OECD. (2020). *Tax Administration 3.0: The Digital Transformation of Tax Administration*. Paris: OECD Publishing.
- World Bank. (2021). *Modernizing Tax Administration: Global Experiences and Lessons Learned*. Washington, D.C.
- Оленников С.М. (2017). Квалификация уклонения от уплаты налогов по объективным признакам состава преступления. // Юридическая ответственность и ответственные юристы. №4. С.37-42.
- Маковеский С.А., Зареская Е.А. (2017) Уклонение от уплаты налогов: особенности преступления и наказания. Вестник института экономических исследований, № 3(7) 156.
- Коттке К. (1998) «Грязные» деньги – что это такое? Справочник по налоговому законодательству в области «грязные» денег. М.
- Александрова Л.И.. (2017) Основные особенности и проблемы выявления уклонений от уплаты налогов. // Актуальные проблемы правового регулирования. С.2.
- Абдуллина А.Р. (2016). Представители как субъекты уклонения от уплаты налогов с организации // Научная перспектива. № 10. С. 37-38,
- Вачугов И.В. (2019). Уклонение от уплаты налогов, как составляющая теневой экономики: рост или сокращение? // Nalogi i nalogooblojenie. – № 6. – S. 42.
- O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi ma'lumotlari. [www.soliq.uz](http://www.soliq.uz).
- O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi <https://lex.uz/docs/4674902>